

OMMAVIY OFERTA (Taklif-shartnoma) 1.0.

Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunga muvofiq tuzilgan ommaviy oferta hisoblanadi.

Ushbu taklif "Delta Max MCHJ" (keyingi o'rinlarda – Sotuvchi) tomonidan e'lon qilinadi va Foydalanuvchi (keyingi o'rinlarda – Xaridor) barcha shaxslar (jismoniy va yuridik) tomonidan aksept qilingandan so'ng shartnoma kuchga kiradi.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur hujjat "Delta Max MCHJ"ning onlayn savdo platformasi — AndalusGo orqali tovarlarni xarid qilish shartlarini belgilaydi.

1.2. Xaridor "Buyurtma berish" tugmasini bosish orqali mazkur taklifni qabul qilgan hisoblanadi (aksept).

1.3. Ushbu shartnoma aksept qilingan paytdan boshlab tuzilgan deb hisoblanadi va tomonlar uchun majburiydir.

2. Shartnomaning predmeti

2.1. Sotuvchi AndalusGo platformasi orqali o'z savdo do'konida mavjud oziq-ovqat va nooziq - ovqat mahsulotlarini xaridorlarga taklif etadi.

2.2. Xaridor AndalusGo Xaridorlar uchun mobil ilovasi orqali ushbu mahsulotlardan tanlab, onlayn buyurtma beradi va to'lovni amalga oshiradi.

2.3. Sotuvchi Toshkent shahri hududida xaridorning manziliga buyurtmani yetkazib beradi.

2.5. Mobil ilovada pulli asosda taqdim etiladigan xizmatlar bo'lishi mumkin. Xaridor bunday xizmatlarni ulardan foydalanish shartlari va narxlari bilan oldindan tanishgan holda mustaqil va ixtiyoriy ravishda faollashtiradi.

2.6. Mazkur xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirganda, Xaridor ulardan foydalanish qoidalari, narxlari va ularni tarifikatsiyalash tartiblari bilan tanishgan va ularga rozi deb hisoblanadi.

2.7. Xaridor Mobil ilovani ishga tushirganidan so'ng Mobil ilova orqali amalga oshirgan barcha murojaatlari va harakatlari uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

2.8. Sotuvchi Mobil ilova xizmatlari tarkibini, uning tuzilishini va ko'rinishini belgilash, shuningdek, yangi mahsulot va xizmatlarning kiritilishi munosabati bilan Xaridor ni oldindan ogohlantirmasdan Mobil ilovaga o'zgartirish kiritish, yangi xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etish huquqiga ega.

2.9. Mobil ilovada ro'yxatdan o'tish orqali Xaridor Shartnoma shartlariga roziligini bildiradi va ularga amal qilishni o'z zimmasiga oladi va Sotuvchiga uning

vakolatiga ega uchinchi shaxslarga Shartnomani amalga oshirish doirasida o'zining Mobil ilovada ko'rsatilgan barcha shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga, jumladan ularni to'plash, tizimlashtirish, saqlash, aniqlashtirish, yo'q qilish, va mobil ilova foydalanuvchilari uchun tovar va xizmatlar, bonuslar va tovar va xizmatlarning maxsus narxlari to'g'risida ma'lumot berish imkoniyati bilan bog'liq boshqa maqsadlarda foydalanish uchun ruxsat beradi.

2.10. Xaridor Mobil ilovada ro'yxatdan o'tayotib, Sotuvchi tomonida yuboriladigan xabarlarini o'z mobil telefoniga elektron pochta/SMS xabarnoma orqali qabul qilishga rozilik beradi. Xabarlarining mazmuni bevosita Mobil ilova haqidagi ma'lumotlar, yangiliklar va Shartnoma doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bilan bog'liq bo'ladi.

3. To'lov tartibi

3.1. Xaridor quyidagi usullarda to'lovni amalga oshirishi mumkin:

- shaxsiy karta (ekvayring orqali);(ekvayring bu xaridor shaxsiy yoki korporativ kartasini mobil ilovaga bir marta tasdiqlash kodi orqali biriktiradi va xar safargi buyurtmani tasdiqlaganda buyurtma summasi buyurtmani yeg'uvchi tomonidan yeg'ib bo'linib aniq bo'lganda tizim Avtomat ravishda mijozning ilovaga biriktirgan kartasidan yechib oladi)

- korporativ karta (ekvayring yoki terminal orqali);

- hisob raqamga pul o'tkazish yo'li bilan;

- naqd shaklda (kuryer orqali).

3.2. To'lov to'liq amalga oshirilganidan so'ng buyurtma tayyorlanadi va yetkazib berish jarayoni boshlanadi. (bundan naqd shakldagi buyurtma mustasno)

4. Yetkazib berish

4.1. Yetkazib berish faqat Toshkent shahri hududida amalga oshiriladi va qo'shimcha hududlar biriktirilgan yoki kamaytirilgan taqdirda Xaridorga Mobil ilova orqali xabar beriladi

4.2. Sotuvchi xaridor mobil ilova orqali buyurtma bergan mahsulotni mavjud bo'lgan oflayn do'kon rastasidan yig'ib, xaridor ko'rsatgan manzilga yuboradi.

4.3. Yetkazib berish muddati, narxi va shartlari sayt/ilovada alohida ko'rsatiladi.

5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

5.1. Sotuvchi quyidagilarga majbur:

- mahsulot sifati va yaroqliligini ta'minlash;

- xaridor ma'lumotlarini maxfiy saqlash;

- to'lovni qabul qilganidan so'ng buyurtmani o'z vaqtida yetkazish.

5.2. Sotuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- xaridorning rozilgisiz Shartnomani bajarish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga berish.

5.3. Xaridor quyidagilarga majbur:

- to'lovni belgilangan tartibda amalga oshirish;

- aniq ishonchli ma'lumotlarni, to'g'ri manzil va aloqa ma'lumotlarini ko'rsatish;

- mahsulotni qabul qilishda ishtirok etish.

- Xaridor login va parolni uchinchi shaxslarga bersa, buning oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha salbiy holatlar uchun javobgar bo'ladi.

5.4. Yuridik shaxs xaridorlar uchun alohida hisob-faktura va to'lov hujjatlari taqdim etiladi.

6. Ma'lumotlarni himoya qilish

6.1. Sotuvchi xaridorlarning shaxsiy ma'lumotlarini O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuniga muvofiq himoya qiladi.

6.2. Ushbu ma'lumotlar uchinchi shaxslarga faqat qonunda belgilangan hollarda taqdim etilishi mumkin.

7. Nizolarni hal etish

7.1. Nizolar avvalo muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

7.2. Kelishuvga erishilmagan hollarda nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida hal qilinadi.

8. Yakuniy qoidalar

8.1. Sotuvchi mazkur ofertani istalgan vaqtda o'zgartirish huquqiga ega.

8.2. O'zgartirishlar e'lon qilingan kundan boshlab yangi xaridorlarga nisbatan va o'zgartirishlardan avvalgi xaridorlarga esa bildirishnoma orqali yuborilib ular tamonidan rozilik bildirilgan taqdirda amal qiladi.

8.3. Ushbu hujjatning joylashuvi: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 16-mavze, 10-uy yonida joylashgan Delta Max MCHJ ofisi.

8.4. Aloqa ma'lumotlari:

Telefon: +998 55 513 57 58

Pochta: andalusgosupermarket@gmail.com

Telegram: @UZandalus

Facebook: fb.com/UZandalus

Instagram: instagram.com/UZandalus

8.5. Sotuvchi rekvizitlari

Yuridik manzil: 100035, Toshkent sh., Chilonzor tumanu, 16 – mavze 10 – uy yonida

h/r: 2020 8000 9007 4831 4002

"ИПАК ЙУЛИ" АИТ БАНКИНИНГ МИРЗО УЛУГБЕК ФИЛИАЛИ

MFO: 00 421

STIR: 304 750 931

IFUT: 47190